

TIBBIYOT MUASSASALARIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING ROLI

Ibragimov To'liq Tohirovich

*Tashkent davlat tibbiyot universiteti. O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 2. Telefon raqami: + 998 (78) 150-78-25.
e-mail: tulkinibragimov7@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda faoliyat olib borayotgan tibbiyot muassasalarida biznesni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda hamda kichik tadbirkorlik subyektlari shaklidagi tibbiyot muassasalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishida bank xizmatining orni haqida fikr yuritilgan. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning o'rni, qarorlar qabul qilinganidan keyin bank sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar, erishilayotgan natijalar va hali oldinda qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Prezident qarorlari, bank, tibbiyot muassasalari, biznes, kichik biznes, moliya, qo'llab-quvvatlash, autsorsing, xususiy sheriklik, xususiy tibbiyot, depozitlar, valyuta operatsiyalari, kredit, audit va auditorlik taftishi.

РОЛЬ БАНКОВ В РАЗВИТИИ БИЗНЕСА В МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Ибрагимов Тулкин Тахирович

Ташкентский государственный медицинский университет. Республика Узбекистан, г.Ташкент, ул. Фаробий, 2. Телефон: +998 (78) 150-78-25. Электронная почта: tulkinibragimov7@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль банковских услуг в создании и развитии бизнеса в медицинских учреждениях, действующих в нашей стране, а также в эффективном функционировании и развитии медицинских учреждений в форме малых хозяйственных субъектов. В статье обсуждается роль указов и постановлений, принятых Президентом, изменения, происходящие в банковском секторе после принятия постановлений, условия, созданные для предпринимателей, достигнутые результаты и работа, которую еще предстоит выполнить.

Ключевые слова: Указы Президента, банковское дело, медицинские учреждения, бизнес, малый бизнес, финансы, поддержка, аутсорсинг, частное товарищество,

частная медицина, депозиты, валютные операции, кредит, аудит и аудиторская проверка.

THE ROLE OF BANKING AND DEVELOPMENT OF BUSINESS AND MEDICAL RESEARCH

Ibragimov Tulkin Takhirovich

Tashkent State Medical University. 2, Farabi str., city of Tashkent, Republic of Uzbekistan. Phone: +998 (78) 150-78-25.

E-mail: tulkinibragimov7@gmail.com

Abstract: This article examines the role of banking services in the creation and development of businesses in medical institutions operating in our country, as well as the effective functioning and development of medical institutions as small businesses. The article discusses the role of decrees and resolutions adopted by the President, the changes occurring in the banking sector following the adoption of these decrees, the conditions created for entrepreneurs, the results achieved, and the work that remains to be done.

Keywords: Presidential decrees, banking, medical institutions, business, small business, finance, support, outsourcing, private partnerships, private medicine, deposits, foreign exchange transactions, credit, audit and audit review.

KIRISH

Respublikamiz tibbiyot muassasalarida biznesni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda hamda kichik tadbirkorlik subyektlari shaklidagi tibbiyot muassasalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko‘p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog‘liq. Bunday faoliyat turlari rivojiga qulay imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar orasida bank xizmatini alohida ajratib ko‘rsatish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish, ilg‘or bank biznesini yuritish Respublikada bank tizimlari o‘rtasida raqobatni kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda kerakli sharoitlar yaratish haqida qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Buning natijasida tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning 3 ta bank — AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda jamlanishi, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmining Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi orqali tashkil etilishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda Tadbirkorlikni rivojlantirishda Prezident qarori bilan “Qishloq qurilish bank” tijorat banki negizida “Biznesni rivojlantirish banki” hamda uning huzurida “Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-son qarori qabul qilindi. Qarorda asosan oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida Biznesni rivojlantirish banki tomonidan kichik biznes loyihalari uchun 7 yilgacha muddatlarda kreditlar ajratiladi. Ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlarga garovtalabi 50 foizga kamaytirildi.

Qarorga ko‘ra, sanoat sohalarida “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturi amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, mazkur dasturga kiritilgan tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag‘lari ajratildi.

O‘zbekistonda Biznesni yanada rivojlantirishda yangi bank paydo bo‘lishi keng imkoniyatlarni yaratib beradi¹.

Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi PQ-2863-son [qaroriga](#) muvofiq:

- moslashuvchan kredit va lizing mexanizmlarini faol tatbiq etgan holda xususiy tibbiyot tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hajmlari va miqyoslarini oshirish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishini kengaytirish, tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish.

- Ixtisoslashtirilgan “Uzmed-lizing” lizing kompaniyasining ustav kapitalini, shu jumladan lizing kompaniyasi muassislarining mablag‘larini, shuningdek, xorijiy investorlarning mablag‘larini jalb etish hisobiga 5 — 10 mln AQSh dollarigacha ko‘paytirish orqali zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiyot uskunalari xarid qilish va tibbiyot tashkilotlariga lizing asosida topshirish hajmlarini kengaytirish chora-tadbirlari ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga

SHARH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi.

Tijorat banklariga xususiy tibbiyot muassasalariga zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, jumladan, xorijdan sotib olish, boshlang‘ich kapitalni shakllantirish, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida bino va inshootlar xarid qilish uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish vazifasi yuklatildi. Shuningdek, aholiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, jumladan, bank kredit kartalari bilan hisob-kitob qilish asosida xususiy tibbiyot muassasalarining tibbiy xizmatlaridan foydalanish uchun iste‘mol kreditlari taqdim etish tavsiya etilgan.

Xususiy tibbiyot tashkilotlari rivojlantiriladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevral kuni “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4606-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, “Asaka” ATBga xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun 50 million dollari miqdorida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi kredit liniyasi taqdim etiladi.

Jamg‘armaning kredit liniyasi 10 yilgacha muddatga, shu jumladan, 3 yillik imtiyozli davr, “Asaka” ATB marjasini hisobga olmasdan yillik 5 foiz stavka bilan hududlarda yangi import tibbiyot uskunolari (kosmetologiyaga oidlari bundan mustasno) va ularga butlovchi qismlarni xarid qilish uchun taqdim etiladi.

Xususiy tibbiyot muassasalari moliyaviy qo‘llab-quvvatlanmoqda

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi xususiy sektorni yanada rivojlantirish, shu jumladan, sog‘liqni saqlash sohasida xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bunda ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy tibbiyot uskunolari, maxsus inventar va asboblari bilan jihozlash, tibbiyot ixtisosliklari turiga mos keladigan hamda sanitariya normalari talablariga javob beradigan bino bilan ta‘minlash yo‘lida qulay kredit va lizing mexanizmlari joriy etildi.

“Mediart” xususiy klinikasini barpo etishda O‘zsanoatqurilishbank tomonidan 2 mlrd. so‘m hajmida kredit ajratildi. Natijada ilg‘or xorijiy andozalarda yirik shifo maskani ishga tushirildi. Zamonaviy SO2 lazer, kolposkopiya, UTT apparati va eng so‘ngi rusumdagi laboratoriya apparatlari bilan jihozlandi. Qirqqa yaqin ish o‘rni yaratildi, jumladan, o‘ndan ziyod oliy toifali shifokorlar jalb qilindi.

– Kolposkopiya – ayollarda uchraydigan kasalliklarni erta aniqlash, xususan to‘qimalarning tuzilishi va ularning o‘zgarishlarini to‘liq o‘rganish, prekanseroz holatlarini aniqlashga imkon beruvchi eng zamonaviy uskuna sanaladi. Bugungi kungacha mazkur apparat orqali 2 mingdan ziyod ayollarimiz maxsus tekshiruvdan o‘tkazilib, davo choralari yordamida farzandli bo‘lishdi.

Ayni paytda klinikada kuniga 100 dan ortiq bemorlarga endokrinologiya, ginekologiya, reproduktologiya, nevropatologiya, kosmetologiya, LOR kabi yo'nalishlarda sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Tibbiyot muassasalarini jihozlashda outsorsing va xususiy sheriklik loyihalari yo'lga qo'yiladi

Tibbiyot muassasalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va xizmatlar sifatini oshirish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirilypti. Bu tadbirlar bilan joriy yil boshida davlatimiz rahbari shaxsan tanishib chiqdi.

Unga ko'ra, har yili 100 mlrd so'm ajratilib, o'tgan yili \$200 mln xorijiy investitsiya va 94 mln dollar grant jalb qilindi. Natijada kompyuter tomografi, magnit rezonansli tomograf va angiograflar viloyatlarda va tumanlarda ham o'rnatildi.

Joriy yil uchun 200 mlrd so'm ajratilib, \$370 mln xorijiy investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan. Osiyo taraqqiyot banki mablag'lari hisobiga 230 tug'uruq muassasasiga 21 mingta uskuna va 6 ta reanimobil olib kelinadi. Germaniyaning KfW banki yordamida esa Qoraqalpog'iston va Xorazmda yurak-qon tomir kasalliklarini davolash uchun tibbiy uskunalar taqdim etiladi.

Prezident jihozlash masalasining faqat bir qismi ekanini ta'kidladi va malakali mutaxassislarni tayyorlash, shifokorlarni qo'shimcha o'qitish zarurligini ma'lum qildi. Shuningdek, yuqori texnologik uskunalardan samarali foydalanish uchun outsorsing va xususiy sheriklik loyihalari yo'lga qo'yiladi.

Jamiyatda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning asosiy maqsadi albatta, jamiyatdan iqtisodiy foyda olish, iqtisodiyotni rivojlantirish va bo'sh ish o'rinlarini yaratishdan iboratdir.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining katta roli bor. Ularning vazifalari va roli quyidagicha:

1. Tijorat banklari tadbirkorlarga moliyaviy yordam bera oladi. Bu moliyaviy yordam, start-uplar uchun to'g'ri kreditlar va kapital olishni osonlashtirish orqali amalga oshiriladi.

2. Tijorat banklari kreditlarni taqdim etadi va tadbirkorlarga shartnoma bo'yicha pul o'tkazishni amalga oshirishda yordam beradi. Tadbirkorlarning har xil moliyaviy muammolarni hal qilish, to'lovlar va pul o'tkazmalarni boshqarish, qarzlar va boshqa moliyaviy maallalar uchun xizmat qilishni o'z ichiga oladi.

3. Tadbirkorlikni boshqarishda, moliyaviy muammolarni yaxshi boshqarish juda muhimdir. Tijorat banklari tadbirkorlarga hisob-kitob xizmatlarini taqdim etadi, hisobvarag'ini o'rganish, to'lovlar va qarzlarni boshqarish, investitsiyalar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun yordam beradi.

4. Tijorat banklari tadbirkorlarga investitsiya qilish, xalqaro bozorda o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, yangi bo'sh ish o'rinlarini yaratish va boshqarishda moliyaviy maslahatlar berish orqali yordam bera oladi.

5. Banklar, tadbirkorlarga moliyaviy resurslar taqdim etish orqali ularni rivojlantirish va kengaytirishga yordam bera oladi. Bu, yangi ish o'rinlarini yaratish va kengaytirish, yangi bozorlar va moliyaviy imkoniyatlarni boshqarishga imkoniyat yaratishda katta ahamiyatga ega.

6. Banklar tadbirkorlarga yangi bozorlarga kirish va xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirishda yordam bera oladi. Ularning xalqaro moliyaviy tizimlardan foydalanishi tadbirkorlarga keng ko'mak qiladi.

7. Banklar, tadbirkorlar uchun moliyaviy risklarni boshqarishda yordam bera oladi. Kreditlarni baholash, moliyaviy tahlil, sarmoyani o'rganish va boshqa moliyaviy tahlillar orqali tadbirkorlarga moliyaviy xavfni kamaytirish uchun xizmat qilishadi.

Tijorat banklarining bu xizmatlari orqali tadbirkorlar moliyaviy bozorni rivojlantirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va savdo faoliyatini kengaytirish uchun qo'llab-quvvatlanadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining ahamiyati katta. Tijorat banklari, tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlar taqdim etish, kreditlar berish, pul mablag'larini saqlash va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish kabi katta imkoniyatlarni beradi.

Tadbirkorlar uchun, tijorat banklari quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

Tadbirkorlar yangi loyihalarni rivojlantirish, korxonalarini kengaytirish yoki tartibga solish uchun moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadilar. Tijorat banklari bu masalada kreditlar orqali tadbirkorlarga moliyaviy yordam beradi.

Depozitlar va pul mablag'larini saqlash:

Tadbirkorlar o'zlarining moliyaviy resurslarini xavfsiz saqlash uchun tijorat banklarida hisobvarag'ini ochishlari mumkin. Banklar shuningdek, pul mablag'larini saqlash orqali tadbirkorlarga hujjatli operatsiyalar va to'lov jarayonlarini tashkil etish imkonini beradi.

Valyuta operatsiyalari: Tadbirkorlar, xalqaro savdo va biznes faoliyatlarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin. Tijorat banklari bu operatsiyalarni tashkil etish uchun valyuta almashtirish, valyuta hisobvarag'ini ochish va valyuta kreditlari taqdim etish imkonini beradi.

Tijorat banklari, tadbirkorlarga elektron to'lovlar, internet-banking va mobil bank xizmatlarini taqdim etish orqali harakatlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklari tadbirkorlarga moliyaviy muammo va xalqaro savdo xavfsizligi kabi muammolarni hal qilishda ham o'rnatilgan tartibda yordam beradi. Ularning moliyaviy tahlil va rivojlanish bo'limlari tadbirkorlarga strategik rejalarni amalga oshirishda yordam

beradi. Shuningdek, tijorat banklari tadbirkorlarga yangi bozorlarga kirish, kredit reytingi, kredit tarixini rivojlantirish va boshqalar kabi ma'lumotlar taqdim etish orqali rivojlanishlarini kuzatish imkonini beradi.

Tijorat banklari, tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholibandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish kabi vazifalarni bajarishda katta ahamiyatga ega.

Tijorat banklari, tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish, moliyalashtirish va kredit shartnomasining sonidan qat'i nazar kafilliklar berish, kompensasiya berish va shaffoflikni ta'minlash kabi imtiyozlar orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradi.

Markaziy bankning ma'lumotiga ko'ra, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan bir yilda ko'rib chiqilgan loyihalarga jami 12,2 trln. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan. Bu mablag'lar tadbirkorlik sub'ektlarining yangi ish o'rni yaratish, xizmatlar ko'rsatish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholini doimiy daromad manbalarini shakllantirish maqsadlarga ajratiladi.

Tijorat banklari, tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutadagi bank kreditlari bo'yicha kompensasiya berish imtiyozlarini ham taqdim etadi. Bu imtiyozlar orqali tadbirkorlik sub'ektlari kompensasiya qo'llanilishi mumkin bo'lgan kreditlar uchun bank kreditlarining foiz miqdorini oshirishlari mumkin bo'ladi.

Tijorat banklari, tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ham ko'maklashadi. 2021 yilda ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdori 3,2 trln. so'mga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p. Bu kreditlar orqali 770 mingdan ortiq oilalar o'z tadbirkorliklarini yo'lga qo'ygan va jami xonadonlarning 10 foizi qamrab olinishiga erishilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining roli juda katta ekanligi sababli, O'zbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy bank tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish maqsadida yildan-yilga turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar orqali tijorat banklari tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik tashabbuslarini ro'yobga chiqarishda katta rol o'ynaydi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli

Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi tufayli mamlakatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatning boshlanishi davlatning yaqindan turib bergan moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib boradi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning rolini oshirib borishga alohida e'tibor beriladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati banklar bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular olib borayotgan faoliyat xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarga haq to‘lash, ishlovchilarni ish haqi bilan ta‘minlash, turli toifadagi korxonalar, firma va boshqalar yuridik shaxslar bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya‘ni olingan foyda va daromadlardan soliq to‘lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarning barcha turlari banklar orqali, o‘z navbatida, olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi.

Alohida ta‘kidlash kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar bank va banklar bilan boladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jahon xo‘jaligining muhim xo‘jalik yuritish qismi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog‘langanligi bugungi kunda hammaga ma‘lumdir. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSHda bank tizimining faoliyati nihoyatda rivojlangan bolib, tadbirkorlikning aktiv iqtisodiy faoliyat yuritishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalarga kompleks ravishda xizmat ko‘rsatadi. Bank tizimining mustahkamlanishi va unga nisbatan aholi ishonchining ortishi natijasida omonatlar hajmi sezilarli ravishda ortib bormoqda. Faqat 2024-yilning o‘zida aholi omonatlari miqdori 1,7 barobar oshdi. 2021-2023-yillar mobaynida aholi daromadlari hajmi 16 barobardan ko‘proq oshgan. Keyingi yillarda banklarning kredit portfeli tarkibi tubdan o‘zgarib bormoqda. Agar 2021-yilda kredit portfelining qariyb 54 foizi tashqi qarzlar evaziga shakllangan bo‘lsa, 2023-yilda banklarimiz jami kredit portfelining 84 foizi ichki manbalar hisobidan shakllantirilgan. Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o‘zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Aytish kerakki, tashqi qarzlar aksariyat hollarda uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha investitsiya loyihalarini moliyalash uchun jalb etilmoqda. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasida e‘tiborli jihatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi - tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo‘yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga; -kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo‘yicha Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 dan 50 foiziga; -kichik biznes subyektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolozning xizmatlari bo‘yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi. Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga talabning va ayni paytda ularga berilayotgan

kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda Banklarning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi qariyb 70 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotimizning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy hajmi esa 2019-yilda 2000-yilga nisbatan 14 barobar oshdi. So'nggi o'n yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo'naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko'paydi. 2022-yilda jami bank kreditlari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 78,3 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta'minotining kuchayishi, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga zamin yaratmoqda. Bank operatsiyalari aktiv va passiv operatsiyalardan iborat bo'lib, passiv operatsiyalar pul mablag'larini ma'lum bir yo'nalishga safarbar etishga qaratilgan. Banklar passiv operatsiyalar orqali jamg'armalar va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etib, foyda oladi.

Aktiv operatsiyalar turli xarakterdagi kreditlarni berish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, quyidagi elementlari bo'yicha turkumlanadi:

- muddatlari bo'yicha kreditlar qisqa, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan;
- kreditlar hajmi bo'yicha kichik, o'rta, yirik miqdorda har bir mijozga individual va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda beriladi;
- ayrim turiari bo'yicha maxsus kafolatni talab etuvchi, garov evaziga beruvchi kreditlar mavjud;
- kreditlarning turiari bo'yicha, ya'ni davlat, tijorat, xalqaro va boshqa turiari bo'yicha berish;
- qarzni turlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga berish;
- vaqtinchalik foydalanish uchun, iste'mol uchun, qarzlarni to'lash uchun, eksport va import operatsiyalarini bajarish uchun beriladigan kreditlar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladi. Bu jarayon oldingilaridan farqli ravishda ancha murakkab hisoblanadi, chunki avvalgi jarayonlar, asosan, korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishga o'z mablag'larini safarbar etib boradi. Tadbirkorlarning banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida ko'pgina erkinliklar berilganligi shunda namoyon bo'ladi, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini O'zbekistonning turli banklaridagi o'z hisobvarag'ida saqlash, kredit va kassa

operatsiyalarini bajarish huquqiga ega. Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonun va shartnomalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitoblar olib borish mumkin. Banklar tadbirkor hisobvarag'ida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa muhim ahamiyatga ega hujjatlarni saqlashni kafolatlab beradi. Banklar tadbirkorlar va mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda pul egasi tomonidan topshiriq qog'ozi bankka kelib tushishi bilan 12 -13 soat davomida keyingi operatsiyalarni bajarishi zarur. Mulk egalari hisobiga pul o'tkazish shaharda 4 ish kunida, viloyatda 5 ish kunida, respublika ichida 10 ish kunida bajarilishi lozim. Agar bu qonun shartlari buzilsa, mijozga yillik foiz miqdorida bank jarima to'laydi. Bank mijozlarning arizasiga binoan ularga tegishli operatsiyalarni bajaradi. Banklar tadbirkorlarni Respublika Markaziy banki tomonidan kiritilgan o'zgarishlar, qoidalar ayniqsa, hisoblar bo'yicha naqd pulsiz tarzdagi operatsiyalar bo'yicha o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bank mijozga kechikib o'tkazgan operatsiyalari uchun, pulni noto'g'ri jo'natganligi uchun, aybdor sifatida, har bir kun uchun o'tkazilayotgan summaning 3 foizi miqdorida jarima to'laydi. Bankning aybi bilan hisob hujjatlari yo'qolsa, mijozga hujjatda ko'rsatilgan summaning har bir kuni uchun 3 foiz miqdorida jarima to'lanadi. Tadbirkorlar bilan bank o'rtasida kredit berish bo'yicha operatsiyalar ikki tomon o'rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun har bir tadbirkor «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini chuqur o'rganib, unga rioya etishi lozim. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik korxonalarining hayoti va iqtisodiy faoliyati valyuta operatsiyalari bilan bog'liqligi ma'lum. Tadbirkorlik korxonalari tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda ham milliy valyuta, ham xorij valyutasida operatsiyalarni bajarishiga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, tashqi savdo jarayonlari bevosita valyuta operatsiyalari bilan bog'liq.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida audit va auditorlik taftishini o'tkazish.

Tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyat yuritishlarida moliyaviy va buxgalteriya hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirishlarida auditorlik firmalari ham muhim rol o'ynaydi. Auditorlik firmalari bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri bo'lib, mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi. O'zbekistonda audit O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni asosida amalga oshiriladi. Audit xo'jalik yurituvchi subyektlarni mustaqil ekspertiza va moliyaviy hisobotini tahlil etuvchi tashkilotdir. Buni shunga vakil qilingan shaxslar auditorlar (auditorlik firmalari) bajaradilar. Auditning asosiy maqsadi moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligi va ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va

boshqa me'yoriy hujjatlariga nechog'lik mosligini aniqlash, bularning to'la-to'kisligi, aniq-ravshanligi, buxgalteriya hisobi yoki boshqa moliyaviy hisob yuritishga qo'llanilayotgan talablarga nechog'lik monandligini aniqlashdan iboratdir. Audit tarkibiga yana konsalting, ya'ni mijoz bilan shartnoma tuzib, xizmatlar ko'rsatish ham kiradi. Auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ustidan maxsus vakolat olgan davlat idoralarining nazorati o'rnini bosmaydi. Auditning asosiy «harakatlanuvchi shaxsi» auditor va auditorlik firmasidir. Auditor belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan hamda auditorlik kasbi ro'yxatiga kiritilgan mutaxassisdir. Auditorlik firmasi yuridik va jismoniy shaxs tomonidan tuzilib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgach, ustaviga ko'ra auditorlik xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

Biznes faoliyatida axborot

Biznes faoliyatini yetarli va aniq axborotlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu axborotlar biznes uchun zarur ma'lumotlar, xabarlar majmuasidan iborat bo'ladi. Axborot ishlab chiqaruvchilar, tovarni sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi aloqa shaklidir. Ishbilarmonlar asosan turli xil axborotlar statistik, moliyaviy, operativ, tashkiliy axborotlar, farmoyish tarzidagi axborot, buxgalterlik, marketing axboroti, ta'minot, xodimlar bo'yicha, ma'lumotga oid axborot va boshqa axborotlar bilan ishlaydilar.

Axborotlar yana ichki va tashqi, dasturiy va me'yoriy axborotlarga bo'linadi. Ichki axborot kichik korxona yoki savdo tashkiloti ichki materiallaridan iborat bo'ladi hamda korxona faoliyati, uning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini moddiy va mehnat xarajatlari hajmi, naqd pul harakati, debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida aksettiradi. Tashqi axborotlar mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, hokimiyat idoralari, banklar, raqobatchilar va boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan aloqalarni ifodalaydi. U tovarlarni sotish va xarid qilish shartlari haqidagi tashqi muhit xabarlaridan iborat bo'ladi.

Foydalanish vaqti bo'yicha axborotlar operativ, davriy va uzoq muddatli, o'zgarish darajasi bo'yicha birlamchi va ikkilamchi axborotga bo'linadi.

Tadbirkorlikda iqtisodiy axborotlar yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular tovar ishlab chiqarish, moddiy boyliklarni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi munosabatlarni aks ettiradi.

Kichik korxonalar uchun fan-texnika axborotlarning roli ham muhim, ular ishlab chiqarishni ilmiy-texnik taraqqiyot asosida rivojlanishni aks ettiradi.

Doimiylik darajasi bo'yicha axborotlar doimiy, shartli-doimiy va o'zgaruvchan bo'ladi. Doimiy axborot o'z ma'nosini uzoq vaqt davomida o'zgartirmaydi (shaharlar,

korxonalar, savdo tashkilotlari nomlari, tovar turiari va boshqalar haqidagi axborotlar). Shartli-doimiy axborotlar ma'lum vaqt davomida o'z ma'nosini saqlab turadi. Unga mahsulot tayyorlash uchun texnik shartlar, me'yorlar, tarif miqdorlari, lavozim, ish haqi va hokazolar kiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bogliq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ishlovchilarni ish haqi bilan ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firmalar va boshqa yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni olingan daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlari uchun barcha turdagi to'lovlar, shuningdek olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi banklarning ro'li hozirgi vaqtning tajribasiga ko'ra ahamiyatli bo'lib turadi. Banklar, kichik bizneslar va tadbirkorlar uchun moliyaviy va boshqa xizmatlarni taqdim etish orqali ularning rivojlanishiga yordam berishadi.

Quyidagi muhim bo'limlar banklarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ro'lini aks ettirish mumkin:

Qo'llab-quvvatlash, egalik va ishga qabul qilish, xizmatlar, sarmoyani tashqi moliyaviy manbalarga jalb qilish, moliyaviy maslahatlar.

Bular banklarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muhim ro'lini aks ettirishning faqat bir qancha misollaridir. Asosiy ravishda, banklar kichik bizneslar va tadbirkorlarni moliyaviy va boshqa xizmatlarni taqdim etish orqali rivojlantirish va kengaytirishda katta o'rin egallaydi.

QOSHIMCHA MA'LUMOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi qaroriga ShARH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi qarori sog'liqni saqlashning xususiy sektorini rivojlantirishni har tomonlama davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan holda yanada rag'batlantirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmlarini kengaytirish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijiy investitsiyalarni yanada jalb qilish maqsadida qabul qilindi, deya xabar beriladi UZA saytida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2863-sonli qaroriga muvofiq, sog'liqni saqlash tizimi xususiy sektorini yanada rivojlantirish bo'yicha xususiy

tibbiyot tashkilotlarining faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish, sog‘liqni saqlashning xususiy sektorida ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va turlarini oshirishni nazarda tutuvchi keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, davlat tibbiyot muassasalarining alohida funksiyalarini sog‘liqni saqlashning xususiy sektoriga berish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish, sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy turizm va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, tibbiy kadrlar malakasini respublikada va chet elda oshirish, xususiy sog‘liqni saqlash sektorini yagona axborot-kommunikatsiya tizimiga integratsiyalash, shuningdek, tibbiyot tashkilotlarini akkreditatsiyalash tizimini joriy etish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Aynan shu masalalarni hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda xususiy tibbiyot tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida urg‘u berilgan. Xususan, “Asaka” aksiyadorlik-tijorat banki qoshida tashkil etilgan nodavlat tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasiga har bir hudud uchun hajmi 1 million AQSH dollari miqdorida bo‘lgan navbatdagi 14 million AQSH dollari hajmidagi transh kredit mablag‘larini ajratish nazarda tutilgan. Bunda nodavlat tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasining mablag‘lari yuqori malakali xorijiy mutaxassislarini jalb qilish, xususiy tibbiyot tashkilotlari shifokorlarini malaka oshirish uchun xorijiy mamlakatlarga yuborishga hamda nodavlat tibbiyot tashkilotlarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga qaratiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklariga xususiy tibbiyot tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatini kengaytirish uchun imtiyozli kreditlar berish tavsiya etilgan.

Qarorda tibbiyot kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga katta e‘tibor berilgan. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga “Asaka” aksiyadorlik-tijorat banki qoshida tashkil etilgan nodavlat tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xususiy tibbiyot tashkilotlari mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun xorijga yuborish tartibini tasdiqlash yuzasidan topshiriq berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2863-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4606-son qarori.

3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-son qarori.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Igamberdiyeva Sayyora Xakimovna, TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI. *Toshkent tuman 1-son kasb-hunar maktabi Umumkasbiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi*. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 17(100), часть 1 Января, 2024.

5. YOSH OLIMLARILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING RO‘LI Ro‘ziboyev Botirjon Zokirjon o‘g‘li And M I Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot 4-bosqich talabasi S.Ahmadjonov Katta o‘qituvchi M.Sharafiddinova Staj.o‘qituvchi <https://doi.org/10.5281/zenodo.10934971>

Internet saytlari

6. <https://sqb.uz/en/press-center/news-uz/xususiy-tibbiyot-muassasalari-moliyaviy-qo-llab-quvvatlanmoqda/>

7. https://uz.kursiv.media/uz/2025-01-21/tibbiyot-muassasalarini-jihozlashda-autsorsing-va-xususiy-sheriklik-loyihalari-yolga-qoyiladi/?utm_campaign=endless_feed